

## RULES FOR THE PREVENTION OF CONFLICTS BETWEEN TEACHERS AND STUDENTS IN THE CONTEXT OF EDUCATIONAL ACTIVITIES

Musurmonov Rakhmatilla,

Associate Professor of "Pedagogy and Management" TVChDPI,  
Candidate of Pedagogical Sciences.

Olloyorov I.

3rd year student of "Pedagogy and Psychology" TVCHDPI.

### ABSTRACT

The article discusses the causes of conflict between students and teachers and guidelines for their prevention, as well as practical suggestions and recommendations.

**Keywords and phrases:** students, teacher, conflicts, pedagogical conflicts, leadership, grouping, demanding attention, self-equality with adults, adolescence, psychological impact, o'Andy, parents. Pedagogik vaziyat ta'lim-tarbiya jarayonida yuz beradigan turli xil shart-sharoitlardan iboratdir. Tajribalarimizdan ma'lumki, o'qituvchilar o'z faoliyatlarida o'quvchilarning dars intizomi bilan bog'liq muammolarga duch keladilar. Ko'pchilik o'qituvchilar o'quvchilarga ma'lum talablarni qo'yib, unga qat'iy rioya qilishni talab qiladilar. Bunday talablar esa o'quvchilarga yoqmaydi. Natijada, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida nizo kelib chiqadi. Nizolarni kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, ularni oldini olish, ya'ni profilaktika qilish zarurati har doim ham mavjud bo'ladi. Xo'sh, buni kim amalga oshiradi? Bunga kim mas'ul? Albatta, o'qituvchi!

Pedagog-o'qituvchi o'zining sezgirliigi, pedagogik mahorati va qobiliyati bilan o'quvchilarning o'zaro nizolarini ham, o'zlari bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nizolarni ham doimiy ravishda profilaktikasi bilan shug'ullanishlari zarur hisoblanadi. Chunki bola bolaligiga borib, nizolarning salbiy oqibatlarini ko'pam o'ylab o'tirmaydi. Tegajog'lik qilgan o'rtog'iga undan oshiribroq javob berishi mumkin. Bu bilan yo'q joydan nizo paydo bo'lishi tayin. Oilalarda tarbiya topayotgan bolalarning tarbiya topganlik darajalari turlichaligi bo'lganligi oqibatida o'z o'qituvchilari bilan to'g'ridan-to'g'ri i nizolashadigan o'quvchilar ham topiladi. Yoki deviant xulqli, tarbiyasi qiyin bo'lgan bolalarning umumiy tartib-intizomga, dars intizomiga salbiy munosabatlari ham bunga misol bo'la oladi.

Ayrim tajribasiz yoki turmush tashvishlari bilan jahldor bo'lgan o'qituvchilarning o'quvchilar bilan qo'pol muomalalari, adolatsizliklari konfliktlarning kelib chiqishiga omil bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ham globallashuv jarayonida zamonaviy o'qituvchiga qo'yilgan bugungi zaruriy talablardan kelib chiqib, ijodiy va izlanuvchanlik bilan faoliyat olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida o'quvchilarni zeriktirmaslik, bilim olishga mativasiya uyg'otish orqali jalb etish mahorati o'qituvchiga har jihatdan bog'liqlini unutmazlik kerak.

Aslida, intizomni buzgan o'quvchi o'zining xatti-harakati noto'g'ri ekanligini biladi, lekin u o'z xulqining motivini tushunmaydi. Sinfdagi har bir bola uchun bu xatti-harakatning turli sabab va maqsadlari mavjud bo'ladi. Pedagog-o'qituvchilar bu motivlarning qanday bo'lishiga qaramay, ularga ta'sir etish usullarini topishlari zarur. Agar o'qituvchilar xulq-atvorning buzilish maqsadlarini aniqlashga qodir bo'lsalar, u holda o'quvchi bilan konstruktiv munosabatlarni o'rnata oladilar. Bunda to'g'ri strategiyani tanlash qadamma-qadam muammoni echimini topish imkonini beradi. O'quvchining xulq-atvoriga samarali ta'sir etishning rejasini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu reja quyidagicha bo'lishi mumkin:

- “yomon” xulq-atvorning sababini aniqlash;
- Uni bartaraf etish usullarini tanlash;
- O‘quvchini qo‘llab-quvvatlashning kelgusi taktikasini ishlab chiqish;
- Muammoni hal etishga ota-onalarni va pedagoglarni jalb etish.

Rejani amalga oshirishda pedagog ketma-ketlikdagi 5 ta vazifani bajaradi.

**1.** Muammoli xulq-atvorni xolisona izohlash.

**2.** Yomon xulq-atvorning sababini tushunib olish.

- “Yomon” xulq-atvorning motivlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:
- E‘tibor talab etish;
- O‘z so‘zini o‘tkazishga harakat qilish;
- Qasd olish istagi;
- Omadsizlikdan qochish.

**3.** O‘qituvchining nuqtai-nazari va munosabatining o‘zgarishi. O‘qituvchi o‘quvchi bilan ma‘lum qoidalar doirasida munosabat qilishlari lozim.

**1-qoida.** O‘quvchi shaxsiga emas, balki uning ayni vaqtdagi xulq-atvoriga diqqatni qaratish. Uning xulq-atvorini muhokama qilayotganda xolisona baho berishga harakat qilish.

**2-qoida.** O‘qituvchi o‘zining negativ his-tuyg‘ularini nazorat qilish.

**3-qoida.** Vaziyatni yanada keskinlashtirmaslik choralarni ko‘rish.

**4-qoida.** O‘quvchining xatti-harakatini butun sinf oldida emas, balki darsdan so‘ng bir o‘zi bilan muhokama qilish.

**5-qoida.** Odatda o‘quvchilar o‘qituvchining barcha aytganlarini “o‘zlari xohlagandek”, ya‘ni aftlarini bujmaytirib, shoshmasdan, bajaradilar. Agar o‘qituvchi bunga ahamiyat bermasa, o‘quvchi o‘z-o‘zidan qoidaga bo‘yso‘nishi mumkin, o‘rtada qarama-qarshilik paydo bo‘lmaydi.

**6-qoida.** O‘quvchiga do‘q-po‘pisa qilish, baqirish, uni ayblash kabi agressivlikni namoyon qilmaslik.

Muammoli xulq-atvorda pedagogik ta‘sir usullari. Agar bola e‘tiborni talab etsa, quyidagi usulni qo‘llash mumkin:

- E‘tiborni kamaytirish;
  - unga e‘tibor bermaslik;
  - ko‘zlar orqali aloqa o‘rnatish;
  - hech qanday qarashlarsiz va so‘zlarsiz uning oldiga kelib turish;
  - bolaning ismini dars mavzusiga bog‘lab aytib o‘tish;
  - yozma tarzda ogohlantirish;
  - o‘z noroziligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri izhor etish.
  - Dars davomida o‘quvchilarga birmuncha vaqt xohlagan ishlari qilishga ruxsat berish.
- “Hamma narsani qo‘llash mumkin” usulini qo‘llash.

• O‘quvchilarning yomon xulq-atvorini ular kutmagan tarzda to‘satdan to‘xtatish: kulgu va yumordan foydalanish; past va yoqimli ovozda gapirish; darsni birmuncha vaqt to‘xtatib turish.

- O‘quvchilarni chalg‘itish.
- Sinf diqqatini intizomga rioya qilmayotganlarga qaratish.
- O‘quvchlarning joyini o‘zgartirish.

**4.** O‘quvchini qo‘llab-quvvatlash strategiyasi. O‘qituvchi bolani qanday bo‘lsa shundayligicha, uning ahmoqona qiliqlari, kamchiliklari, nojo‘ya xatti-harakatlariga qaramay qabul qilish kerak. Xulq-atvoridagi kichik ijobiy o‘zgarishlarni ham maqtash, uning intizomini yaxshilashga imkon beradi.

## 5. Ota-ona va boshqa fan o'qituvchilarini jalb etish...

- Ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning qoidalari.
- Ota-onalarga bolasining xulq-atvorini umumiy tarzda emas, balki aniq dalillar keltirgan holda ma'lum qilish;
- Bolasining dars intizomiga nisbatan munosabati salbiyligini aniq misollar bilan izohlash;
- Dars tayyorlamasligi, uyga berilgan topshiriqlarni surunkasiga bajarmay kelishi;
- Darsda o'rtoqlariga xalaqit berib o'tirish;
- Dars jarayonida o'qituvchini hurmat qilmaslik;
- O'quv qurollarini avaylab-asramasligi, daftar va ruchkasiz maktabga kelish kabi holatlarni bola inkor eta olmaydigan darajada asoslab berish;

Shuning uchun ota-onalarning pedagogik va psixologik bilimlarini o'stirish orqali ota-onaga tavsiya va maslahatlar berish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilinsa boladagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan konfliktlarning oldi olingan bolar edi.

**Xulosa va takliflar:** Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika va menejment" kafedrasida professor-o'qituvchilari pedagogika va psixologiya yo'nalishidagi 3-4 kurs talabalarini bilan "Pedagogik konfliktologiya" fanini o'rganish jarayonida ana shu muhim jihatga e'tiborni qaratib, "Maktab - laboratoriya" tajriba maydonchalarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish asnosida talabalar – bo'lajak bakalavr o'qituvchilarda pedagogik konfliktlar profilaktikasi, konfliktni boshqarish va korreksiyalash yuzasidan bilim, ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida amaliyotchi maktab o'qituvchilari bilan hamkorlikda olib borayotgan ishlari natijalari o'laroq, ijobiy natijalarni qo'lga kiritayotganliklarini e'tirof etish o'rinlidir. Bunga misol qilib, Chirchiq shahar 2-umumiy o'rta ta'lim maktabida olib borilayotgan ishlarni keltirish o'rinli bo'lar edi. Olib borilgan profilaktika ishlari natijasida o'smir yoshidagi sinf o'quvchilari o'rtasida o'zaro nizolarning kelib chiqishi keskin kamaydi. O'quvchilarning dars intizomiga nisbatan bo'lgan munosabatlari ijobiy tomonga o'zgardi. O'quvchilar xulq-atvorida ijobiy o'zgarishlar yuz berib, jamoat ishlarida ishtiroklari faollashdi, o'zaro izzat-hurmat, mehr-oqibat kabi qadriyatlarga amal qilish ko'nikmalari shakllana boshladi.

Maktab o'qituvchilari, sinf rahbarlari, maktab psixologiga dolzarb muammo yuzasidan tavsiyalar berilib, metodik maslahat va ko'rsatmalar taqdim etildi. Shuningdek, maktab rahbarlariga ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini kuchaytirish, tarbiyaviy sohada pedagogik va psixologik bilim, ma'lumotlarni kengroq singdirish, ayniqsa, tajribasi kam bo'lgan yosh oila boshliqlariga zaruriy maslahat va tavsiyalarni doimiy ravishda berib borish yuzasidan tavsiyalar berib borilmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova M. Pedagogik konfliktologiya O'quv qo'll. T., 2017
2. Rashidov H.F., Musurmonov R. Dars intizomiga nisbatan salbiy munosabatlarning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish yo'llari // Maktab va hayot – Toshkent, 2015. – № 1(109). - 2-5 betlar.
3. Yusupov E. Yoshlarning ma'naviy kamoloti. T.: O'zbekiston, 1995.;
4. Musurmonov R. Uzlüksiz ta'lim tizimida intizomsiz o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlash // Uzlüksiz ta'lim – Toshkent, 2014. – № 2. - 30-35 betlar.
5. USAROV J. E. INKLYUZIV TA'LIMNING NAZARIY VA KONTSEPTUAL MASALALARI // INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – T. 1. – №. 02. – C. 37-46.



6. Usarov J. E. Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency //Theoretical & Applied Science. – 2017. – Т. 53. – №. 9. – С. 79-82.
7. Usarov J.E. O'quvchilarning malakasini shakllantirish Ta'lim samaradorligini oshirish omili sifatida // Nazariy va amaliy fan. - 2017. - Т. 53. - №. 9. - S. 79-82.
8. Усаров, Жаббор Эшбекович. "ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ." Theoretical & Applied Science 9 (2017): 79-82.
9. Ravshanov, J. F. "Importance of classification of historical terms and concepts." (2020): 461-464.
10. Равшанов, Жамшид Файзуллаевич. "НЕКОТОРЫЕ МЕТОДЫ РАБОТЫ С ПОНЯТИЯМИ И ТЕРМИНАМИ НА УРОКАХ ИСТОРИИ." Science and Education 1.Special Issue 4 (2020).
11. Ravshanov J. F. The importance of working with terms and concepts in teaching history. – 2020.
12. Ravshanov J. F. Some methods of working with historical concepts in history lessons //Международная научно-рецензируемая онлайн конференция «Современная психология и педагогика: проблемы, анализ и результаты. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 439-443.
13. Абдухамидов С. М. и др. РОЛЬ НАРОДНОГО ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ //INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH. – 2017. – С. 374-376.
14. Жуманова Ф. У., Жабборова О. М. УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ДАВРИДА БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ //Academic Research in Educational Sciences. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 238-243.
15. Махкамов У., Жуманова Ф., Равшанов Ж. БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШГА ТАЙЁРЛАШ //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 3.
16. Исламова М. Ш. The system of methods of forming a professional worldview in students on the basis of chemical knowledge //Образование и воспитание. – 2020. – №. 5. – С. 60-64.
17. Элмурзаева Н. Х. Организационно-педагогические условия профессионального обучения в промышленном колледже учащихся с ограниченными возможностями здоровья //Актуальные проблемы современной науки. – 2012. – №. 5. – С. 84-86.
18. Suyarov A. The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region //SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. – 2017. – Т. 103. – С. 41-46.
19. Eshbekovich U. J., Jumayevich E. N., Abdusalomovna H. S. Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 8. – С. 6-6.
20. Эшнаев Н. Ж. Маънавий-ахлоқий муаммоларни илмий тадқиқ этишининг ўзига хос жиҳатлари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. Special Issue 1.
21. Мусурмонов Р., Мусурманова М. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда инновациялар //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 3. – С. 777-783.
22. Юнусов О. ЎЗБЕК МИЛЛИЙ САНЪАТИНИ ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРНИНГ ОНГИГА СИНГДИРИШ ЙЎЛЛАРИ //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. Special Issue 4.
23. Sayfullayeva I. Q. BO'LAJAK LOGOPEDLARDA ARTTERRAPIYANI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
24. Туракулов Б. Н. РОЛЬ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В ДИСТАНЦИОННОМ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ //European science. – 2020. – №. 3 (52).
25. Халилова М. А., Мухитдинова М. Мактабгача таълим ташкилотларида ахборот-компьютер технологияларини мусика тарбияси воситаси сифатида куллашнинг хусусиятлари //Халқ таълими. – 2020. – Т. 3. – №. 0056. – С. 4.

26. Эрназарова Г. О. Применение акмеологического подхода // Молодой ученый. – 2020. – №. 18. – С. 533-536.
27. I.Qodirov (2020). Zamonaviy umumta'lim maktablari boshqaruvida rahbarlik mahorati va mas'uliyati. Xalq ta'limi, 55-60 bet
28. Рахманова М. Қ. ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВ МУНОЗАРАЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ЎҚИТУВЧИНИНГ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИ, ИЖОДКОРЛИГИ ВА ФАОЛЛИГИ // Oriental Art and Culture. – 2020. – №. IV.
29. Курбонова М. Ф. Ёшларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари // Халқ таълими. – 2020. – Т. 3.
30. Rustamovna M. S. Psychological features of attitudes of students to their own health in conflict situations. journal of critical reviews. – ISSN-2394-5125 VOL 7, 2020. – №. 17. – С. 3071-3076.2020.
31. Komilova N. K. et al. Territorial structure of agriculture development in Uzbekistan in terms of economical geography // J. Advanced Res. L. & Econ. – 2019. – Т. 10. – С. 2364.
32. Эгамбердиева Ш. Д., Эгамбердиева Ф. О. РЕКЛАМНЫЙ ТЕКСТ КАК ОСОБЫЙ ВИД ДИСКУРСА // Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 1.
33. Sharipova G. INTERPRETATION OF THE MEANING AND SIGNIFICANCE OF THE CONCEPTS OF " SELF-DEVELOPMENT" AND " DEVELOPMENTAL EDUCATION" IN SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL RESOURCES.
34. Mirzarahimova G. I. Pedagogical and Psychological Bases of Development of Educational Activity in Students // International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – Т. 70217030.
35. Gafurdjanovna B. L. MIXED EDUCATION AS A MODERN PRODUCT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE // International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 8. – С. 5-5.
36. Расулов А. Н. Инвестиционная привлекательность предприятия: сущность, необходимость и вопросы диагностики // Интернаука. – 2020. – №. 20-3. – С. 46-50.
37. Абдусаматова Ш. С. Ҳарбий хизматчиларни амалиётга тайёрлашнинг ижтимоий-психологик жиҳатлари // Ҳарбий фаолиятда психологик ва социологик хизматнинг тутган ўрни ҳамда роли” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси. – 2020. – С. 25-28.